

O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING BADIY TALQINI

Rajabova Ruxshona

Buxoro davlat universiteti, 6-4 Uzb 25 guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17708773>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida ayol obrazining badiiy talqini tahlil qilingan. Mumtoz davr adabiyotidan tortib zamonaviy nasr va she'riyatgacha bo'lgan manbalarda ayollarga berilgan obrazlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Xususan, Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Layli sof muhabbat ramzi sifatida, Oybek "Navoiy" romanida Guli sadoqatli va mehribon ayol timsolida, O'tkip Hoshimov "Dunyoning ishlari" asarida esa ona obrazi fidoyilik va sabr ramzi sifatida ko'rib chiqilgan. Erkin Vohidov va Zulfiya Mo'minova she'riyatida esa ayollarning ma'naviy kuchi, sabri va halolligi ulug'langan.

Maqolada turli davrlardagi ayol obrazi o'zgarishlari va ularning umumiy barqaror xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, o'zbek adabiyoti, muhabbat, fidoyilik, ona, sabr, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественная интерпретация образа женщины в узбекской литературе. Проанализированы произведения от классического периода до современной прозы и поэзии. В частности, в поэме Алишера Навои «Лейли и Меджнун» Лейли изображена символом чистой любви, в романе Айбека «Навои» Гули представлена как преданная и любящая женщина, а в произведении Уткира Хошимова «Дела земные» образ матери раскрывается как символ самоотверженности и терпения. В поэзии Эркина Вохидова и Зулфиьи Муминовой прославляется духовная сила, стойкость и честность женщин. В статье подчёркивается, что несмотря на различия в интерпретации в разные эпохи, основные характеристики женского образа остаются неизменными.

Ключевые слова: женский образ, узбекская литература, любовь, самоотверженность, мать, терпение, классическая литература, современная литература.

Abstract. This article analyzes the literary interpretation of the female image in Uzbek literature. The study covers works ranging from classical literature to modern prose and poetry. In Alisher Navoi's epic Layli and Majnun, Layli is portrayed as a symbol of pure love; in Oybek's novel Navoi, Guli embodies loyalty and compassion; while in O'tkip Hoshimov's The Affairs of the World, the image of the mother is depicted as a symbol of self-sacrifice and patience. In the poetry of Erkin Vohidov and Zulfiya Mo'minova, women's spiritual strength, resilience, and honesty are glorified. The article concludes that although the portrayal of women changes across literary periods, the core qualities of the female image remain stable.

Keywords: female image, Uzbek literature, love, devotion, mother, patience, classical literature, modern literature.

Kirish. O'zbek adabiyotida "ayol" obrazi eng muhim, ko'p qirrali va barqaror mavzulardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Ayol timsoli asrlardan buyon nafaqat go'zallik va muhabbatning, balki fidoyilik, sabr, sadoqat va mehrning ramzi sifatida yoritilib kelinadi. Turli davr adabiyotida ayollarga bo'lgan qarashlar hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy o'rni badiiy asarlarda o'ziga xos tarzda ifoda etilgan. Shu bois, o'zbek adabiyoti tarixini tahlil qilishda ayol obrazining badiiy talqinini alohida ilmiy o'rganish muhim hisoblanadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazi, avvalo, muhabbat va poklik timsoli sifatida gavdalanadi. Jumladan, Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Layli obrazini sof muhabbatning ramzi tarzida tasvirlaydi. Laylining go'zalligi va pokligi Majnun qalbida cheksiz ishqni uyg'otadi. Ushbu obraz orqali inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularning badiiy ifodasi yaratilgan. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Layli obrazini sof muhabbatning ramzi sifatida tasvirlaydi. Laylining pokiza muhabbati Majnunni ilohiy ishqqa muftalo etadi.

Dostonning:

*"Majnun qildi dard ila bemor,
Bir visoling ilinjida beqaror."*

misralari orqali ayolning go'zalligi va samimiyligi inson qalbini butkul zabt etuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Demak, mumtoz adabiyotda ayol obrazi ko'proq go'zallik va poklik bilan uyg'un holda berilgan.

Keyingi davrlarda, xususan sovet adabiyoti namoyandalarining asarlarida ayol obrazi ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokchi, vafodor inson va ma'naviy barkamollik timsoli sifatida talqin qilinadi. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanida Guli obrazi mehribon va sadoqatli ayol sifatida gavdalanadi. Bu obraz orqali oddiy xalq vakilasining ma'naviy kuchi hamda saroy ayollaridan farqli o'laroq, halollik va samimiylikka asoslangan hayoti tasvirlangan.

XX asr o'zbek she'riyati ham ayol obrazining turli qirralarini badiiy talqin etishda muhim manba hisoblanadi. Erkin Vohidov she'riyatida ayollarning sabr-toqati, aqli va zakovati ulug'lanadi. Shoirning "Ayol – hayotning mohiyati" degan satrlari ayol timsolining jamiyat va hayot uchun beqiyos ahamiyatini yuksak falsafiy ma'noda ifodalaydi.

Erkin Vohidov ijodida ayol hayotning mazmuni, mehrning manbai sifatida ulug'lanadi.

Uning:

*"Ayol – hayotning mohiyati,
Ayol – mehrning manbai."*

misralari ayol obrazining umuminsoniy qadrini ifoda etadi.

Adabiyotda "ona" obrazi ham doimiy va markaziy mavzulardan biridir. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona timsoli hayotiy voqealar orqali tasvirlanib, farzand uchun fidoyilikning badiiy namunasi yaratiladi. Muallif ayolga nom bermagan bo'lsa-da, bu xususiyat barcha onalarga xos fazilatlar sifatida umumlashtirilgan.

O'tkip Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona obrazi turli qirralarda tasvirlangan. "Gilam paypoq" hikoyasida farzandi uchun jonini ham ayamaydigan ona timsoli yaratiladi:

"Ona qordan qo'rqmadi, sovuqdan qo'rqmadi. Uning yuragini faqat farzandining isi qizdirardi."

Yozuvchi onaga ism bermagan. Bu orqali muallif tasvirlangan fazilatlarni bitta shaxsga xos emas, balki barcha onalarga xos umumiy xususiyat sifatida ko'rsatishga intilgan.

Shoira Zulfiya Mo'minovaning "Ayol" she'rida esa ayollarning bardoshi, halolligi va mehribonligi ulug'lanadi. Shoira "Bolasiga chopgan ohusan" misrasi orqali ona timsolini badiiy umumlashtirib, uni milliy adabiyotimizdagi boshqa ona obrazlari bilan hamohang tarzda yoritadi.

Shu bilan birga, Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asaridagi bug'u ona obrazi ham insoniyatdagi ona timsolining ramziy talqini sifatida ilmiy qiyosda tahlil qilinishi mumkin.

Shoira Zulfiya Mo'minovaning "Ayol" she'rida esa ona obrazi bardosh va halollik timsoli sifatida tasvirlanadi:

*“Ezgulikni emizgan o‘zing,
Halollikda tanhosan, toqsan.
Bolasiga chopgan ohusan,
Sen ‘Onasan’, shu bilan haqsan.”*

Bu misralarda ayol – ayniqsa ona obrazining hayotiy va ma’naviy buyukligi ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, uning asosiy badiiy mohiyati – sadoqat, sabr, mehr, go‘zallik va bunyodkorlik timsoli sifatida doimo barqaror qolgan.

Mumtoz adabiyotda u muhabbat va poklik ramzi sifatida, sovet davri adabiyotida esa ijtimoiy faol shaxs sifatida tasvirlangan. Zamonaviy adabiyotda esa ayol obrazi millatning ma’naviy kuchi va jamiyat taraqqiyotining tayanch manbai sifatida ulug‘lanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.
2. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1998.
3. Erkin Vohidov. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
4. O‘zbek adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.